


Volume II | Issue 3 | March | 2024

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



ISSN: 2181-4058

Available online at www.imfaktor.com

IMFAKTOR
Science driven pages

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ - 2024

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2024-3>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

INOYATOV Javohir Ne'matillo o'g'li
O'zDJTU
stajor-o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10873486>

YAPON VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZAMON VA ASPEKT HAQIDA UMUMIY TAVSIF

ANNOTATSIYA

Yapon tilida so'zlashuv jarayonida gapning tog'ri tashkil etilganligi ko'p jihatdan zamon va aspektning tog'ri qo'llanilganiga bog'liq bo'ladi. Yapon tilida zamon faqat uch shakl orqali ifodalanishi esa bu mavzuning yanada dolzarbligini ko'rsatadi. Bu esa yapon tilida so'zlashuvchilaridan zamon va aspekt haqida yetarli bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Aspekt esa harakatning nutq so'zlanoyatgan ayni vaqtda qaysi pog'onada ekanligini bildiruvchi grammatik shakl hisoblanadi. O'zbek tili grammatikasida aspekt tushunchasi mavjud emas. Maqolamizda aynan shu mavzularga atroflicha va imkoni boricha chuqurroq yondoshishga harakat qilamiz. Zero, yapon tili uchun, bu ko'tarilgan mavzu nafaqat muhim bo'libgina qolmay, o'rganilishi shart bo'lgan jihatlardir.

Kalit so'zlar: aspekt, fe'l, zamon kategoriyasi, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, yapon tili, yapon tilida so'zlashuv jarayoni, yapon tilida zamon, zamon va aspekt, grammatik shakl, yapon va o'zbek tillaridagi zamon.

ВРЕМЯ В ЯПОНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ АСПЕКТА

АННОТАЦИЯ

В разговорном японском языке правильная организация предложения во многом будет зависеть от правильного использования времени и аспекта. Тот факт, что в японском языке время выражается только в трех формах, свидетельствует о большей актуальности этой темы. Это требует от говорящих по-японски достаточных знаний и навыков о времени и аспекте. С другой стороны, аспект-это грамматическая форма, которая указывает, на какой ступени находится действие в то время, когда речь идет. В грамматике узбекского языка нет понятия аспекта. Именно к этим темам мы постараемся подойти подробно и максимально глубоко в нашей статье. В конце концов, для японского языка эта поднятая тема не только важна, но и является аспектом, который необходимо изучить.

Ключевые слова: аспект, глагол, категория времени, прошедшее время, настоящее время, будущее время, японский язык, японский разговорный процесс, время в японском языке, время и аспект, грамматическая форма, время в Японском и узбекском языках.

TENSE IN JAPANESE AND UZBEK AND A GENERAL DESCRIPTION OF THE ASPECT

ANNOTATION

The organization of a sentence in the process of speaking Japanese will largely depend on the correct application of tense and aspect. The fact that in Japanese the tense is expressed only through three forms suggests that this topic is even more relevant. This requires sufficient knowledge and skills of the tense and aspect from Japanese speakers. The aspect, on the other hand, is the grammatical form that denotes which step the movement is in at the same time that the speech is delivered. There is no concept of aspect in Uzbek grammar. In our article, we will try to approach exactly these topics in detail and as deeply as possible. After all, for the Japanese language, this raised topic is not only important, but also aspects that must be studied.

Keywords: aspect, verb, tense category, past tense, present tense, next tense, Japanese language, spoken process in Japanese, tense, tense and aspect in Japanese, grammatical form, tense in Japanese and Uzbek.

Biror bir tilni o'zlashtirish jarayonida til o'rganuvchilar, albatta, katta qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar asosan grammatika qoidalarida o'z ifodasini topadi. Ana shunday qiyinchiliklardan biri tilda zamon kategoriyasining ifodalanishi deb aytsak, xato bo'lmaydi.

Aspekt esa harakatning nutq so'zlanayotgan ayni vaqtda qaysi pog'onada ekanligini bildiruvchi grammatik shakl hisoblanadi. O'zbek tili grammatikasida aspekt tushunchasi mavjud emas [1, 2].

O'zbek tilida zamon asosan fe'l bilan ifodalanadi. Fe'l zamonlari ish harakati nutq so'zlanib turgan paytdan avval, nutq so'zlanib turgan paytda yoki nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilgan, bajarilmaganligiga munosabatni ifodalovchi fe'l shaklidir. Shunga ko'ra, fe'l zamonlari, dastlab, uch guruhga bo'linadi:

1. O'tgan zamon;
2. Hozirgi zamon;
3. Kelasi zamon.

2.1. Yapon tilining zamon va aspektda o'zbek tilidan farqlanishi

Ma'lumki o'zbek tili agglyutinativ til hisoblanadi. Agglyutinativ til deb so'z o'zagi yoki negiziga qo'shimchalar qo'shilishi (ulanishi) natijasida yangi so'zlar hosil bo'luvchi tillar tushuniladi. Agglyutinativ tillarda so'zning o'zak yoki asosini o'zgartmagan holda qo'shimchalar qo'shish bilan ma'lum so'z va shakl yasaladi, har bir qo'shimcha muayyan ma'no va vazifaga ega hisoblanadi [3].

Yapon tili ham agglyutinativ til hisoblanadi. Shunga muvofiq, o'zbek tili bilan o'xshash jihatlari ko'p. Lekin shunga qaramay, zamon va aspekt jihatidan qarab olinadigan bo'lsa, o'xshash jihatlardan ko'ra, farqli jihatlari ko'pligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu farqli jihatlar quyidagilar:

1. Yapon tilida ba'zi aspektlarning o'zbek tilidan farq qiluvchi zamon shaklida ifodalanishi.

Ya'ni yapon tili (asosan, fe'l so'z turkumida) ifodalangan ma'lum bir aspektning o'zbek tilidan farq qiluvchi zamon shaklida ifodalanishi. Misol uchun o'zbek tilida kundalik odat tusiga kirgan ish-harakatlar kelasi zamon fe'li orqali ifodalanadi: Men har kuni ertalab badantarbiya qilaman. Yapon tilida esa kundalik odat tusiga kirgan ish-harakatlar hozirgi davomli zamon shaklida ifodalanadi:

私は毎朝体操をしています。

Bu misoldan ko'rinib turibiki, yapon tilidagi ma'lum bir gaplarni tog'ridan to'g'ri, o'zgarishsiz o'zbek tiliga tarjima qilib bo'lmaydi [4].

2. Yapon tilida zamon kategoriyasining faqatgina uch shaklda ifodalanishi.

O'zbek tilidagi zamon ifodalovchi ma'nolar har biri alohida zamon yasovchi qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun qulaylik tug'diradi. Ya'ni gap qaysi zamonda kelayotgani va qanday ma'no ifodalayotgani qiyinchiliksiz anglanadi. Misol uchun: Bordim, boribman, borganman. Bu misoldagi barcha so'zlar o'tgan zamon yasovchi qo'shimchalar bilan kelgan bo'lib har biri alohida ma'no ifodalab kelgan.

Yapon tilida esa zamon kategoriyasining faqat uch xil shakli mavjud. O'z navbatida bu shakllar zamon ifodalashi mumkin bo'lgan barcha ma'nolarni qamrab oladi. Ya'ni zamon ma'nolarini ifodalash uchun uch xil shakldan boshqa shakl mavjud emas. Bu esa gapning qaysi zamoni ifodalab kelayotganini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi:

Misol uchun: 読んでいます

Bu misoldagi 読んでいます so'zi gapda ikki xil za'mon ma'nosini ifodalab kelishi mumkin. Bulardan birinchisi hozirgi zamon shakli bo'lib, bu aynan hozir davom etayotgan ish-harakatni ifodalaydi. O'zbek tilida "o'qiyapti" deb tarjima qilinadi. Ikkinchisi esa, hozirgi tugallangan zamon shakli hisoblanib, o'zbek tilida "o'qiganman" deb tarjima qilinadi. Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibiki yapon tilida gap to'liq ko'rinishda bo'lmasa bu so'zlarning qaysi zamoni ifodalab kelayotganini aniqlash mushkul. Lekin boshqa tomondan esa, yapon tilini o'rganishni endi boshlaganlarga bu narsa zamon kategoriyasini o'zlashtirishda yengilik tug'dirishi mumkin.

3. Yapon tilida shaxs-son qo'shimchalarining mavjud emasligi [5].

Ma'lumki o'zbek tilida shaxs-son qo'shimchalari mavjud bo'lib, gapning egasi kimligini aniqlash kontekstsiz ham mushkullik tug'dirmaydi. Misol uchun: yozyapman, yozyapsan, yozyapti.

Yapon tilida esa shaxs-son qo'shimchasi mavjud emas. Ya'ni gapning egasi kimligini aniqlashda ba'zi paytlarda qiyinchilik yuzaga kelish mumkin. Bu ayniqsa uchinchi shaxs sonni ifodalashda o'z aksini topadi. Misol uchun: 売っている (sotmoq fe'lining hozirgi zamon davomli shakli) bu gapda harakat bajaruvchisining kimligini kontekstsiz aniqlash qiyin.

4. Yapon tilida his-hayajonni ifodalashda, asosan, sifat so'z turkumining ko'p qo'llanilishi.

O'zbek tilida gap mazmunini kesim hal qiladi va bir o'zi gap bo'lib kelishi ham mumkin. Kesimning esa asosan fe'l so'z turkumi orqali ifodalanish holatlari nisbatan ko'proq. Shuningdek, his-tuyg'u ma'nosini ifodalashda ham asosan fe'l so'z turkumi ko'p qo'llaniladi. Misol uchun; qo'rqmoq, sevmok, hursand bo'lmoq.

Yapon tilida esa, o'zbek tilidan farqli o'laroq, his-tuyg'u, asosan, fe'l so'z turkumi orqali emas, balki sifat so'z turkumi orqali ifodalanadi. Bu esa yapon tilini o'rganishni endi boshlaganlarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Misol uchun 好きです、嫌いです. Bu so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda yaxshi ko'rmoq (好きです) va yomon ko'rmoq (嫌いです) ko'rinishida bo'ladi. Aslida esa bular yapon tilida sifat so'z turkumi hisoblanib, o'zbek tilida ham sifat so'z turkumiga tarjima qilsak, yaxshi ko'riladigan, yomon ko'riladigan deb tarjima qilinadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, yapon tili va o'zbek tili o'xshash jihatlari ko'p bo'lgan ikki til hisoblanadi. Bu o'xshashliklarni o'rganish davomida yapon tilini o'zlashtirish ma'lum darajada osonlashadi. Shunga qaramay, farqli jihatlari ham ko'plab topiladi. Misol uchun, har ikki tildagi zamon va aspekt tushunchalari. Yapon tili zamon va aspektini o'zlashtirish bir tarafdin nisbatan oson bo'lsa, boshqa tarafdin qiyinchilikni keltirib chiqaradi.

Yapon tili zamon ifodalanishida faqatgina uch shakl mavjudligi yapon tilini o'rganuvchilar uchun bir tarafdin oson bo'lsa, boshqa tarafdin zamoni to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Qiyinchiliklarga sabab bo'lishi shundaki, barcha ma'nollarning aynan shu uch shaklda ifodalanishi majburiydir. Buning yechimi o'laroq, yapon tilini o'zlashtiruvchi o'zbek tilida so'zlashuvchilar zamon ifodalaydigan ma'nolar bilan birga u ma'nolarni ta'minlovchi birliklarni to'liq o'rganishi va uni o'zbek tiliga solishtirilishi kerak deb hisoblandi.

IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
2. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2009.
4. 庵功雄・清水佳子 (2016) 『上級日本語文法演習 時間を表す表現』 スリーエーネットワーク
5. 庵功雄(2019a) 「意味領域から考える日本語のテンス・アスペクト体系の記述」 『言語文化』 55、一橋大学

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz